



KICHIK MAKTAB YOSHIDA BOLA SHAXSINING RIVOJLANISH XUSUSIYATI

Bozorova Gulmira Abdumalik qizi
Eshqobilova Mohira Ilhom qizi
TerDPI talabalari

Anotatsiya: Hozirgi jamiyatimizning asosiy bo'g'inini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarning ilmiy salohiyatining qanchalik darajada bo'lishidan bo'lishida katta rol o'ynayotgan jarayonlardan biri bu kichik maktab yosh davri hisoblanadi. Sababi bolalarning psixikasidagi asosiy jarayonlar shu davrga to'g'ri keladi.

Аннотация: Главным звеном нашего современного общества является молодежь. Одним из процессов, играющих большую роль в развитии научного потенциала молодежи, является период младшего школьного возраста. соответствуют этому периоду.

Annotation: The main link of our current society is young people. One of the processes that play a major role in the development of the scientific potential of young people is the period of junior school age. The reason is that the main processes in the psyche of children correspond to this period.

Kalit so'zlar: 1. Kichik maktab 2. Nutqni rivojlantirish 3. Boshlang'ich ta'lim 4. O'quv matreali 5. Ovoz chiqarib o'qish 6. O'zlashtira ololmaslig 7. O'quv faoliyati 8. Shaxslararo munosabat.

Ключевые слова: 1. Младшая школа 2. Развитие речи 3. Начальное образование 4. Учебный материал 5. Чтение вслух 6. Неумение усваивать 7. Учебная деятельность 8. Межличностные отношения.

Key words: 1. Junior school 2. Speech development 3. Primary education 4. Study material 5. Reading aloud 6. Inability to master 7. Educational activity 8. Interpersonal relations.

Odatda psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Lekin bu yosh davrga ajratish prinsipi qat'iy va mutlaq degan fikr emas albatta chunki xalq ta'limi tizimida yuz beradigan ayrim o'zgarishlar bunga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazdi. Jumladan bola maktab ta'limida bog'chada tarbiyalanayotgan paytdan boshlab tayyorgarlik ko'ra boradi. Buning uchun u dastaval ta'lim tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi. Undan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologik jismoniy ham psixologik jihatdan qariyb jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Jenevalik psixolog Jan Piajening ma'lumotiga ko'ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burulishlar ro'y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo'lib, ma'lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko'proq o'zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo'lib boradi. Shuning uchun ham ular ota-onalari o'ylanib qoladigan mavhum matematik vazifalarni ham o'qituvchisi o'rgatganday tezda yechadigan bo'lib qoladi. Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi tashqi real olamni, u qanday bor bo'lsa shunday anglay boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning o'quv faoliyati o'z tarkibiga quyidagilarni kiritadi.



-o'quv vazifalarini ajrata olish, toppish va o'zlashtirish.

-o'zini va o'z faoliyatini adekvat baholay olish va nazorat qila olish.

-faoliyatda o'zini o'zi boshqara olish

-mantiqiy fikrlash qoidalaridan foydalana olish

-umumlashtirishning turli shakllarini egallash va ulardan foydalana olish;

-jamoviy faoliyatlarda ishtirok eta olish.

- yuqori darajada mustaqil ijodiy faollika ega bo'lish.

Lekin aksariyat hollarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati maktab amaliyotida birinchi o'ringa bolalarni amaliy ko'nikmalarga o'qish, yozish, sanash malakalarga o'rgatish muomosi turadi. Metodlar –kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish uchun quyidagi nutq turlarini tavsiya etadilar. Nutq turlari; -muloqot, nutq, ichki nutq, tashqi nutq, o'zini fikrini bayon etish, og'zaki nutqni bayon etish, o'zgalar nutqini idrok etish, yozma nutqni idrok etish, tashqi o'qish, ichki o'qish, og'zaki, yozma. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 3000-7000 so'zlarni ishlatadi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib uni o'zlashtirish ma'lum bir tarbiyaga aylanib boradi. 7-9 yoshli bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Boshlang'ich maktab yoshining chegaralari 7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha. Bu vaqtda bola boshlang'ich maktabga borishni boshlaydi. Bu ham bola organizimining faol biologik rivojlanish davri muhim o'zgarishlar tananing asab tizimi skelet va mushak tizimlariga ayniqsa ichki organlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shuningdek 7-9 yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilar oilasidagi katta yoshli bobo –buvilarimiz ko'maklariga muhtoj bo'lganliklari sababli pedagoglardan tashqari ularning ko'rsatmalariga amal qilish tabiiy holatdir. Pedagoglarning har bir o'rgatgan bilimlarini kichik maktab yoshidagi bolalar tomonidan haqiqatligigiga ishonmasligi ularga taqlid qilishlik topshirilgan vazifalarni mehr va muhabbat bilan bajarishlik kabi psixik xususiyatlar boshlang'ich ta'limning muhim shartlaridan biri. Shu bilan birga ushbu xususiyatlar bolalar tarbiyasidagi ilk axloqiy va madaniy sifatlarini shakllanish bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

O'quv faoliyati bolaga berilgan o'quv matreallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi ko'rsatmalar beradi. Kichik maktabdagi yoshdagi o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali xotira ustunlik qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hatto mazmuni tushunarli bo'lgan matrealni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan mexanik ravishda o'rganib qoldi. Respublikamizning psixologik olimi E.G'oziyevning fikriga ko'ra sabab bunday, ularning nutq boyligini yetishmasligi ilmiy atamalar til qonuniyatlarini bilmasligi matrealni ijodiy to'ldirish unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi so'zma so'z qaytarilishini osonlashtiradi.

Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu usuldan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalarini va hatti harakatlarini tahlil etish va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan aqliy va o'quv matrealini o'zlashtirish yuqori bo'ladi.



Kichik maktab yoshdagi bolalar o'z o'quv faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatidan yana biri shu davrdan boshlab o'quv matrealini o'zlashtira olmasligining dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. Kichik yoshdagi bolalar past o'zlashtirishi sababli o'qishidagi qiyinchiliklar quyidagilar bilan bog'liq bo'ladi. –neyrofizologik sabablar ,bilish jarayonlari yetarli darajada rivojlanmasligi, erkin va mustaqil harakat pastligi ,oila muhitidagi kamchiliklar , muloqot kamchiliklari.

O'qishga nisbatan ijobiy munosabatlar kichik kichik maktab davrining oxirlarig kelib bir muncha pasayishi ko'zga tashlanadi. O'quv faoliyatiga qiziqish 1-2 sinflarda ko'tarilib 3-4 sinflarda pasayadi. Pasayishiga sabab o'qituvchining tayyor matreallarni bayon etishi ko'p muloqot qilishi 3-4 sinflar odatda o'qilganlarni hikoya qayta qilib berishi doskada yozilgan mashqni ko'chirib yozish qoidalari va she'rlarni yodlashni yoqtirmaydilar va aksincha misol va masalalarni mustqail ravishda yechish ,rasm chizishni , loy o'ynashni, plastilin o'ynashni narsalar yasashni yaxshi ko'rishadi .Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga qiziqishi pasayish sabablaridan biri sifatida V.A Suxomliniskiy o'qituvchi tomonidan past bahoning ko'p qo'yilishi bu esa bolada o'qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o'z imkoniyatlariga nisbatan bo'lgan ishonchning pasayishi deb ataladi.

Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga sabab bir tomondan o'qituvchining doimiy ravishda unga ko'rsatadigan faol ta'siri bo'lsa ikkinchi tomondan o'quv jamoasining ko'rsatadigan ta'siri .Bundan tashqari bolaning oilasi va tevarak atrofdan odamlar bilan ham muloqotida katta o'zgarishlar bo'ladi oilada endi ma'lum bir majburiyat va huquqlari bo'lgan shaxs sifatida qabul qilindi va o'z o'zidan bola bilan bo'lgan munosabatlarda o'z aksini topadi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib bolaning nutqi boshqalarga bo'lgan munosabati jamoaviy hayot ichida va ijtimoiy munosabat ta'sirida shakllanadi. Bu davrga kelib bola atrofida qilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va qolatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdag'i bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zгалar ko'z ungida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilar faoliyatining asosiy vazifasi –bu o'quvchilarni “ o'qishga”ga bilim olishga o'rgatish. Kichik maktab yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida ta'limning ta'sirida jiddiy o'zgarishlar ularni hayotlarining ma'suliyatli davri bo'lmish o'smirlik davriga o'tish uchun tayyorlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. O'quvchining ushbu yosh davrida o'qituvchining har bir aytgan so'zi, xar bir xatti-harakati, ta'sir o'tkazish uslubi uning uchun haqiqat mezon bo'lib qoladi. Chunki o'quvchilar o'z o'qituvchilariga juda qattiq ishonadilar, ularning fikr va mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik taktdan o'ta ta'sirlanadilar, qo'ygan talablariga qat'iy amal qiladilar. Ana shu tomondan pedagog bergan barcha vazifalarni, yaratilgan muammoli vaziyatlarni hal qilishga intiladilar, ularni o'z vaqtida ado etishga intiladilar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imonova, M., & Tojiyeva, D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 950-952.
2. Imonova, M., & Muhammadova, D. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING USTUVORLIGI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 907-912.
3. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
4. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
5. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
6. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
7. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.
8. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
9. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
10. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
11. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.
12. Imonova, M., & Xoltorayeva, M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ZARURIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 903-906.
13. Imonova, M. (2024). AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ORNI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 485-490.



14. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. *Science and innovation*, 2(B3), 355-358.
15. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.
16. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.
17. Ashurova Sh. F. (2023) SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASVURLARNING SHAKLLANISHI "Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
18. Ashurova Sh.F. (2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION *Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)*
19. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 363-368.
20. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 369-373.
21. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 32-35.
22. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 418-421.
23. Неъматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. *Студенческий вестник*, (5-1), 62-63.
24. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. *Science and innovation*, 1(B4), 444-449.
25. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 86-88.
26. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. *O 'zbekiston milliy universiteti xabarлари*, 1(6).



27. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).
28. Немаатуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.
29. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.
30. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43–46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>
31. qizi Ne'matullayeva, S. X., & Ulug'bek qizi Abduqahhorova, M. (2023). BOLA SHAXSINING RIVOJIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO 'LLASH SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 341-344.